

877

P-25

RASULOV RAVSHANXO'JA

UMUMIY
TILSHUNOSLIK

817
Q-25

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY
VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI

RASULOV RAVSHANXO'JA

UMUMIY TILSHUNOSLIK

*Respublika oliy o'quv yurtlari o'zbek tili va adabiyoti hamda
xorijiy til va adabiyoti (tillar bo'yicha) fakultetlari
bakalavrlari uchun darslik*

- 9513 -

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

TOSHKENT - 2021

MUHARRIRDAN

UO'K: 811.512.133'374
KBK 81.2a7
R 25

R 25 R.Rasulov. Umumiy tilshunoslik. –T.: «Fan va texnologiyalar
nashriyot-matbaa uyi», 2021. 320 bet.

ISBN 978-9943-7186-4-7

Darslikda umumiy tilshunoslik fani, jahon tilshunosligi tarixining asosiy bosqichlari, yetakchi yo'nalishlari, maktablari, ta'limotlari va tilshunos allomalar haqida ma'lumot beriladi.

Darslikda tilshunoslikning ilmiy-nazariy va falsafiy muammolari: til va nutq, til va nutq birliklari, substansiya va forma, sistema va struktura, semiotika, tilning ikki jihati, sintagmatika va paradigmatica, tipologiya kabi muhim va murakkab masalalari hamda tilshunoslikning qator diaxron va sinkron tadqiqot metodlari haqida fikr yuritiladi.

Darslik tilshunoslarga, respublika oliy o'quv yurtlari o'zbek filologiyasi va chet tillar fakultetlarining bakalavrlariga mo'ljallangan.

Учебник предоставляет информацию о науке общее языкознание, об основных этапах истории мировой лингвистики, о ведущих направлениях, школах, учениях и лингвистах-мыслителях.

В этом исследовании речь идет о таких научно-теоретических и философских проблемах языкознания, о его важных и сложных вопросах, как: язык и речь, языковые и речевые единицы, субстанция и форма, система и структура, семиотика, два аспекта языка, синтагматика и парадигматика, типология, а также о ряде лингвистических методов синхронного и диахронного исследования.

Учебник предназначен для языковедов, бакалавров факультетов узбекской филологии и иностранных языков высших учебных заведений республики.

The textbook provides information about science of general linguistics, the main stages of the history of world linguistics, the leading directions, schools, scientists and linguists-thinkers.

In this study, we are talking about such scientific-theoretical and philosophical problems of linguistics, its such an important and complicated questions, as: language and speech, language and speech units, substance and form, system and structure, semiotics, two aspects of the language, syntagmatics and paradigmatics, typology, and also a number of linguistic methods of synchronic and diachronic study.

The textbook is intended for linguists, bachelors of faculties of Uzbek philology and foreign languages of higher educational institutions of the republic.

UO'K: 811.512.133'374
KBK 81.2a7

Mas'ul muharrir: Hamid Ne'matov – filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar: Jamoliddin Yoqubov – filologiya fanlari doktori, professor;
Abdi Mamatov – filologiya fanlari doktori, professor.

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta ma'nsus ta'lim vazirligining 2021 yil 1 martdagi 110-sonli buyrug'iga asosan darslik sifatida tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-7186-4-7

© «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi» 2021.

Tilshunoslik bo'yicha respublika oliy o'quv yurtlarida o'qitilayotgan fanlar ichida «Umumiy tilshunoslik» o'quv fani darslik va qo'llanmalar bilan ta'minlanganlik jihatidan eng kambag'al desak, xato bo'lmaydi. Keyingi 25 yildan ortiq vaqt davomida bu yo'nalishda hech narsa e'lon qilinmagan. Shunga ko'ra, R.Rasulovning ushbu darsligiga talab va ehtiyoj juda katta.

Darslikning kirish bo'limida muallif umumiy tilshunoslik o'quv fani qiziqtiradigan masalalarni juda to'g'ri sanab o'tadi va rejalashtirgan darsligining uch qismdan iborat ekanligini aytib, buning sabablarini ochib beradi.

Darslikning birinchi qismi tilshunoslik tarixi masalalariga bag'ishlanib, o'z ichiga olti bobni oladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, darslik o'zbek tolibi ilmlariga mo'ljallab yozilgan. Shu bois unda tilshunoslik fani rivojiga ulkan hissa qo'shgan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Koshg'ariy, Mahmud az Zamaxshariy, Alisher Navoiy, Mirzo Mehdixon kabi sharq allomalarining lingvistik meros va talqinlari tahliliga katta e'tibor berilgan. Bu esa mazkur darslikning qimmat va ahamiyatini keskin oshiruvchi omildir.

Muosir o'zbek tilshunosligida zamonaviy tahlil usullarining shakllanishi, rivojlanishi va ommalashishi sovet lingvistikasida Ivan Meshchaninov, Lev Shcherba, Yevgeniy Polivanov, Viktor VINO-gradovlarning ta'limotlari bilan uzviy bog'liq bo'lganligi sababli darslikning beshinchi bobida xuddi shu tilshunoslarning lingvistik qarashlarini atroflicha sharhlaydi.

Darslikning oltinchi bobida o'zbek tilshunosligi taraqqiyotiga o'z hissalarini qo'shgan o'ndan ortiq tilshunos olimning ilmiy faoliyati va lingvistik qarashlari mufassal yoritiladi. Bu o'rinda shuni qayd etib o'tish kerakki, bunda ham muallif personaliya usulidan borib to'g'ri yo'l tanlagan.

Darslikning navbatdagi ikkinchi qismi tilshunoslikning nazariy masalalariga bag'ishlangan bo'lib, u o'n bir bobdan tashkil topadi. Bunda juda asosli va tushunarli shakl-u mazmunda sharhlanganidek, bamisoli til

(lison) ayni bir zamonda ham ijtimoiy, umumiy hamda xususiy (shaxsiy, individual) mohiyatli ekanligiday, fan ham ijtimoiy va shaxsiy kabi ziddiyatli mazmun – mohiyatga egadir. Akademik Sergey Vavilovning o'z chiqishlaridan birida: «Fan – bu olim deb ataluvchi ayrim shaxslarning o'z qiziqishlarini jamiyat (davlat) mablag'i hisobidan qondirishlaridir» - deb hazilomuz aytgan gapida katta hikmat va haqiqat yashiringan. Kamolotga yetgan olimning ehtiyoji shu darajaga ko'tariladiki, bu shaxsiy ehtiyoj, ijtimoiy zarurat jamiyat rivoji shartlari bilan uyg'unlashadi – shaxs va jamiyat tavhidi yuzaga keladi. O'tgan asr fanida Dmitriy Mendeleyev, Albert Eynshteyn, Enriko Fermi, Igor Kurchatov, Sergey Korolyov, o'zbek olimlari Habib Abdullayev, Sobir Yunusov, Ibrohim Mo'minov, Abdurauf Fitrat, Ayub G'ulomov kabilarning faoliyati buning yorqin namunasidir. Bunday olimlar jamiyat ehtiyojlarini o'z ehtiyojlari deb biladi va uni qondirishga intiladi. Ushbu darslik ham mana shunday ijtimoiy ehtiyoj tuyg'usining shaxsiy qiziqish, ilmiy dunyoqarashini umumlashtirish shaklida voqelanish ko'rinishlaridan biridir. Tilshunosligimizda dunyoqarash, fanning ma'lum taraqqiyot bosqichini umumlashtirishga ulkan ehtiyoj mavjudligidan esa, jumladan, akademik Azim Hojiyevning lisoniy birliklar tabiati haqidagi maqolalari silsilasi, professor Shavkat Rahmatullayevning «Hozirgi adabiy o'zbek tili» darsligi dalolat berib turibdi. Ravshanxo'ja Rasulovning ushbu darsligi ham shu turdagi umumlashtirish mahsulidir. Unda muallif o'z lingvistik dunyoqarashini, uzoq yillar davomida tadqiq etib kelayotgan manbai – til tabiatini tushunishi va talqin qilishini umumbashariy ilmiy qadriyatlar zaminida kitobxonga yetkazishga intiladi. Shu xususiyati bilan bu darslik alohida ahamiyatlidir – unda shaxsiy qiziqishlari ijtimoiy ehtiyoj bilan tavhidlashgan olimning til va tilshunoslik mohiyatiga qarashlari o'z ifodasini topgan. Shuning uchun bu ish ham oldin sanab o'tilganlar bilan bir qatorda turib, o'zbek tilshunosligining *yangi sifat bosqichiga* ko'tarilayotganligidan, mana shu sifat bosqichi bo'sag'a va pillapoyalari shakllanayotganligidan dalolat beradi. Darslikda tahlil va talqin uchun tanlangan muammo va tushunchalar mana shunday zinapoya barpo qilish uchun zarur bo'lgan qurilish materiallaridir – ular juda oqilona va puxta o'ylab tanlangan. Ularning barchasi bitta yetakchi omilga – til tadqiqi jarayonida dialektikadan onglik va izchillik bilan amaliy foydalanish, o'z tadqiqoti, hukmlari, xulosa-yu tavsiyalarida – pirovard oqibatida fanda (tilshunoslikda, o'zbek tilshunosligida) – mustaqillikni, hukmlarning o'zi o'rganayotgan manba tabiatiga, ya'ni,

(o'zbek tili qurilishiga) muvofiqligini ta'minlashga, fanni payravlikdan, ongsizona ergashishdan xalos qilishga, tilshunoslik fanini milliy istiqlol oldimizga qo'ygan buyuk vazifa – ijodiy tafakkur sohibini yetishtirish, unda milliy g'urur va milliy mafkurani shakllantirishga xizmat qildirishga qaratilgan savob, bu kun talablaridan kelib chiqadigan ishlardir. Albatta, muallifning barcha talqinlarini to'la-to'kis qabul qilish, ularga ko'r-ko'rona ergashish, ularni aynan takrorlash mumkin emas va bunday yondashishni muallif targ'ib va tashviq etayotgan dialektik metodologiyaning o'zi ham, tadqiq manbai bo'lgan tilning serqirraligi va ziddiyatligi ham rad etadi. Lekin bunday masalalarning qo'yilishining o'zi fanimiz uchun inqilobiy burilish, ma'naviy-metodologik mustaqillik nishonalaridir.

Siyosiy mustaqillikdan keyin iqtisodiy mustaqillikka, undan keyin ma'naviy mustaqillikka erishish va uni mustahkamlash esa barchamiz – Vatanimiz, jamiyatimiz, ongimiz, ta'limimiz oldida turgan eng muhim vazifadir.

Darslikning navbatdagi uchinchi qismi tilshunoslik metodlari haqida bo'lib, u o'z ichiga ikki bobni oladi. Bu qism va unda ko'tarilgan masalalarning o'ziga xos mustaqil ahamiyati shundaki, mazkur o'ziga xoslik ishning har qanday fanda, jumladan, tilshu-noslikda, alohida mavqega ega bo'lgan ilmiy tadqiqot metodlari masalasiga bag'ishlanganligi bilan bog'liqdir. Yunon olimi Arximedning: “Tayanch nuqtani bering, men richag bilan yerni ko'taraman” degan gapi bejiz emas: har bir tadqiqotchi uchun metodologiya, dunyoqarash tayanch nuqta bo'lsa, uning “richag”i tadqiq metodlari, o'rganish manbaining ayrim-ayrim qirralarini tavsiflash usul, yo'l va vositalaridir. Ongli, puxta o'zlashtirilgan va uqilgan tadqiq metodi bilan qurollanmagan olimni ish qurollariga ega bo'lmagan va nima qilishi kerakligini bilmagan “ustahunarmand”ga qiyoslash mumkin. Hech bir ilmiy izlanish tadqiq metodisiz amalga oshirilmaydi, lekin, afsuski, uqilgan, imkoniyatlari nima bilan cheklanganligi tadqiqotchining ongiga borib yetgan metod asosida yakunlangan ilmiy izlanish mahsuli fanda har qadamda uchramaydi. Juda ko'p ilmiy ishlar uqilmagan payravlik, ergashish, oldingi tadqiqotlar “namuna”lari asosida bajariladi. R.Rasulovning bu darsligi metod va ma'lum metod asosida tilning ayrim-ayrim qirralarini tavsif etish tushunchasini ta'lim oluvchi ongiga singdirishga qaratilgan. Muhimi shundaki, muallif tilni va uning ayrim birliklarini, bo'g'inlarini turli metodlar bilan o'rganish turli xil xulosalarga olib kelishi – bir metod

(o'zbek tili qurilishiga) muvofiqligini ta'minlashga, fanni payravlikdan, ongsizona ergashishdan xalos qilishga, tilshunoslik fanini milliy istiqlol oldimizga qo'ygan buyuk vazifa – ijodiy tafakkur sohibini yetishtirish, unda milliy g'urur va milliy mafkurani shakllantirishga xizmat qildirishga qaratilgan savob, bu kun talablaridan kelib chiqadigan ishlardir. Albatta, muallifning barcha talqinlarini to'la-to'kis qabul qilish, ularga ko'r-ko'rona ergashish, ularni aynan takrorlash mumkin emas va bunday yondashishni muallif targ'ib va tashviq etayotgan dialektik metodologiyaning o'zi ham, tadqiq manbai bo'lgan tilning serqirraligi va ziddiyatligi ham rad etadi. Lekin bunday masalalarning qo'yilishining o'zi fanimiz uchun inqilobiy burilish, ma'naviy-metodologik mustaqillik nishonalaridir.

Siyosiy mustaqillikdan keyin iqtisodiy mustaqillikka, undan keyin ma'naviy mustaqillikka erishish va uni mustahkamlash esa barchamiz – Vatanimiz, jamiyatimiz, ongimiz, ta'limimiz oldida turgan eng muhim vazifadir.

Darslikning navbatdagi uchinchi qismi tilshunoslik metodlari haqida bo'lib, u o'z ichiga ikki bobni oladi. Bu qism va unda ko'tarilgan masalalarning o'ziga xos mustaqil ahamiyati shundaki, mazkur o'ziga xoslik ishning har qanday fanda, jumladan, tilshunoslikda, alohida mavqega ega bo'lgan ilmiy tadqiqot metodlari masalasiga bag'ishlanganligi bilan bog'liqdir. Yunon olimi Arximedning: "Tayanch nuqtani bering, men richag bilan yerni ko'taraman" degan gapi bejiz emas: har bir tadqiqotchi uchun metodologiya, dunyoqarash tayanch nuqta bo'lsa, uning "richag"i tadqiq metodlari, o'rganish manbaining ayrim-ayrim qirralarini tavsiflash usul, yo'l va vositalaridir. Ongli, puxta o'zlashtirilgan va uqilgan tadqiq metodi bilan qurollanmagan olimni ish qurollariga ega bo'lmagan va nima qilishi kerakligini bilmagan "ustahunarmand"ga qiyoslash mumkin. Hech bir ilmiy izlanish tadqiq metodisiz amalga oshirilmaydi, lekin, afsuski, uqilgan, imkoniyatlari nima bilan cheklanganligi tadqiqotchining ongiga borib yetgan metod asosida yakunlangan ilmiy izlanish mahsuli fanda har qadamda uchramaydi. Juda ko'p ilmiy ishlar uqilmagan payravlik, ergashish, oldingi tadqiqotlar "namuna"lari asosida bajariladi. R.Rasulovning bu darsligi metod va ma'lum metod asosida tilning ayrim-ayrim qirralarini tavsif etish tushunchasini ta'lim oluvchi ongiga singdirishga qaratilgan. Muhimi shundaki, muallif tilni va uning ayrim birliklarini, bo'g'inlarini turli metodlar bilan o'rganish turli xil xulosalarga olib kelishi – bir metod